



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 2 - mart

VI-59-46-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanida 2022-yil davomida ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalarni ishga joylashtirish bo'yicha tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan olib borilgan ishlar to'g'risida

Angor tumanida 2022-yil davomida ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalarni ishga joylashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar yuzasidan tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi rahbarining hisobotini tinglab, bildirilgan taklif va mulohazalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumanida 2022-yil davomida ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalarni ishga joylashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar yuzasidan Angor tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi rahbarining hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o'rinbosarlari (O.Muratov, O.Umarov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (Sh.Mirzayev), tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi rahbari (E.Ro'ziyev)ga xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari bilan hamkorlikda:

- tumanda 2023-yil davomida ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalarni ishga joylashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar samaradorligini oshirish;

- oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalarning har biri bilan manzilli targ'ibot tadbirlarini o'tkazib, ularni mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish ishlarini tashkil etsin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi

(G.Jumayeva)ga ommaviy axborot vositalarida Angor tumanida ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan talabalarni ishga joylashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar va bo'sh ish o'rinlari bo'yicha mavjud vakansiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hokimlik veb-saytiga va OAVlarda yoritilishi tavsiya etilsin.

4. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha tegishli tashkilot rahbarlari ma'lumotlarni **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib borsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Angor tumani O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi deputatlik guruhi va Milliy Tiklanish demokratik partiyasi deputatlik guruhlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov